

FOROBIYNING ILMLAR KLASSIFIKATSIYASI VA UNING ZAMONAVIY ILM UCHUN AHAMIYATI

Boygaziyev Tulqin Inatullayevich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

katta o'qituvchisi

E-mail: bojgazievtulkin@gmail.com

Tel: +99888 190 83 83

<https://orcid.org/0009-0003-1275-9700>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Nasr Forobiyning ilmlar klassifikatsiyasi haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Mutafakkir tomonidan ishlab chiqilgan fanlar tasnifining metodologik asoslari, mantiqiy tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, bilimlarning taxminiy, sofistik va poetik turlari ularning mantiqiy dalillanishi nuqtai nazaridan talqin etiladi. Forobiyning ilmlar kelib chiqishiga oid qarashlari ochib berilib, uning ilmiy merosining O'rta asr ilm-fani taraqqiyotidagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Abu Nasr Forobiy, ilmlar klassifikatsiyasi, fanlar tasnifi, bilish nazariyasi, mantiq, metafizika, substansiya, aksidensiya.

Abstract: This article analyzes Abu Nasr al-Farabi's views on the classification of sciences. The methodological foundations, logical structure, and distinctive features of the system of sciences developed by the thinker are examined. In addition, hypothetical, sophisticated, and poetic types of knowledge are interpreted from the perspective of their logical justification. Al-Farabi's views on the origins of sciences are revealed, and the significance of his scholarly heritage in the development of medieval science is substantiated.

Keywords: Abu Nasr al-Farabi, classification of sciences, systematization of sciences, theory of knowledge, logic, metaphysics, substance, accident.

Uyg'onish davri ilmiy bilimlarining predmeti va mazmunini, ilmlarning har bir sohasining xarakterini aniqlashda Forobiyning ilmlarning kelib chiqishi va klassifikatsiyasiga bag'ishlangan asarlari alohida o'rin tutadi. Uning bu boradagi faoliyati O'rta asr tabiiy-ilmiy va falsafiy fikri taraqqiyoti tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Sharqda o'sha davrda Aristotel tomonidan amalga oshirilgan fanlar klassifikatsiyasi mashhur va keng tarqalgan edi. Ma'lumki, Aristotel inson bilimlarining hamma sohasini o'z ichiga olgan falsafani uch qismga: nazariy, amaliy va ijodiy qismga bo'lgan [1].

O'rta asr Sharqida, jumladan O'rta Osiyoda bu klassifikatsiya har qanday bilimni nazariy va amaliy qismga bo'lishda ancha keng qo'llanilardi. Nazariy bilim deganda dunyoni "sof bilish", ya'ni dunyoning umumiy tuzilishi haqidagi aqliy bilim, amaliy bilim negizida esa insonning jamiyat va oiladagi xatti-harakatlari to'g'risidagi bilim tushunilardi.

Xususan, o'rta asr Sharqining ayrim buyuk mutafakkirlari o'zlarining ilmlar klassifikatsiyasini yaratdilar. Ular fan taraqqiyotida progressiv rol o'ynadi. Bu muammoga Forobiy, undan keyin esa Xorazmiy va Ibn Sinolar ayniqsa katta e'tibor berdilar.

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Forobiy "Kitob at-taqsim as-saodat" ("Baxt-saodatga erishuv haqida") risolasida barcha ma'lum ilmlarni nazariy va amaliy (praktik) bilimlarga bo'ladi. Risolada u O'rta asrda keng tarqalgan va qabul qilingan ilmlarning klassifikatsiyasini beradi.

Bundan tashqari, ilmlarning mukammal tasnifini yaratishga Forobiy o'zining "Kitob fi ihso al-ulum va at-ta'rif" ("Ilmlarning klassifikatsiyasi va ta'rif haqidagi kitob") yoki qisqartirib ataladigan "Ihso al-ulum" asarini bag'ishlaydi. Bu asarida u inson bilimlarining original klassifikatsiyasini taqdim etibgina qolmasdan, balki o'rta asr ilmlarining barcha sohaları ta'rifini va chuqur tahlilini ham berdi [2].

Forobiy o'zining "Ihso al-ulum" asarida fanlarni quyidagi tartibda joylashtirgan:

"Til haqidagi ilm" (Ilm al-lison). Bu yetti bo'limdan iborat bo'lib, ular quyidagilardan:

- grammatika;
- poetika;
- mantiq va matematika;
- tabiat va ilohiyot haqidagi ilmlar – metafizika;
- shaharlarni boshqarish haqidagi ilm;
- yurisprudensiya;
- kalom.

Abu Nasr Forobiy fanlar klassifikatsiyasida birinchi bo'limni til ilmiga bag'ishlar ekan, tilning milliy xarakterga egaligini ta'kidlaydi, ayni paytda muayyan qoidalarining har bir tilga taalluqli ekanligini, tilning umumiy xarakterli holatlari va xususiyatlari hamda milliy tillarning bir-biridan farq qiladigan belgilari mavjudligini ko'rsatib o'tadi [3].

Shuningdek, mutafakkir fikricha, til ilmi ham yetti bo'limdan iborat bo'lib, ular quyidagilardir:

1. yakka va sodda so'zlar hamda gaplar haqidagi ilm;
2. murakkab va qo'shma so'zlar hamda gaplar haqidagi ilm;
3. talaffuz qoidalari haqidagi ilm;
4. tilning qonun va qoidalari haqidagi ilm;
5. to'g'ri yozish qoidalari;
6. to'g'ri o'qish qoidalari;
7. she'r yozish ilmi — poetika, uch qismdan: vazn, qofiya va poeziya qoidalaridan iborat.

Til haqidagi fandan keyin keladigan mantiq ilmi, Forobiyniing qayd etishicha, fikrlash qonun-qoidalari haqidagi fan bo'lib, uning yordamida inson o'z tafakkurini tarbiyalaydi, fikrini aniq, izchil bayon qilish, muhokama jarayonida mantiqiy xatolarga yo'l qo'ymaslik imkoniyatiga ega bo'ladi. U mantiqni fikrlar grammatikasi sifatida olib qarab, mantiqiy kategoriyalarning umuminsoniy xarakterini ta'kidlab o'tadi. Shunisi e'tiborliki, mantiqiy kategoriyalarni Forobiy til vositalari, ifodalari, shakllari bilan uzviy aloqada tahlil qiladi, bilimlarning har xil dalilini — taxminiy, sofistlik, poetik turlarini ularning mantiqiy tuzilishi nuqtai nazaridan tushuntirib beradi.

Mutafakkir obyektiv dunyo predmetlarining miqdor, makon va boshqa munosabatlarini o'rganavchi matematikani yetti mustaqil fanga: arifmetika, geometriya, mexanika, analitika

hamda yulduzlar, musiqa va og'irlik haqidagi fanlarga bo'lib, ularning predmeti va ahamiyatini birma-bir tavsiflab beradi [4].

Shuningdek, Forobiy bu ilmlarni keltirib chiqargan sabablarga quyidagicha ta'rif bergan: "Bilki, (olamda) substansiya (javhar) va aksidensiya (javhar bo'lmagan, oraz) hamda substansiya va aksidensiyaning yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo'qdir" [5].

Buyuk alloma nazarida, substansiyaning birinchi xususiyati cheksiz bo'laklarga bo'linishidir, ya'ni uning bo'laklarini tashkil etuvchi predmet va hodisalar cheksizdir, demak, substansiya birinchi navbatda miqdor xosdir. Shuning uchun miqdor bilan shug'ullanuvchi fan ilmlar sistemasida boshlang'ich o'rinni egallab, arifmetika deb ataladi.

"Son (miqdor) haqidagi fan, — deb yozadi Forobiy, — bu substansiyaning turli qismlarini bir-biriga qo'shish, bir-birlaridan ajratish, ularni ko'paytirish va bo'lish, ularning proporsiyalarini topish (va shunga o'xshash jarayonlar) to'g'risidagi fandir" [6].

Mutafakkir fikricha, substansiya bo'laklarga bo'linar ekan, bu bo'laklar ma'lum shakl va figuraga, burchak va tomonlarga, baland-pastlik hamda katta-kichiklikka ega bo'ladi. Shuning uchun ham arifmetikadan so'ng substansiya bo'laklarini o'lchash ehtiyoji tug'ilishi natijasida o'lchov to'g'risidagi fan, ya'ni geometriya vujudga keladi. So'ng substansiyaning turli harakatlarini bir-birlari bilan solishtirib o'rganishga qaratilgan osmon jismlarining harakati haqidagi astronomiya fani vujudga keladi va u arifmetika bilan geometriyaga asoslanadi.

Substansiya harakatda ekan, u ma'lum ovozlarga ega bo'ladi, bu ovozlarning past-balandligi, uzun-qisqaligi bilan farq qiladi. Natijada bu ovozlarni o'rganish ehtiyoji paydo bo'lib, buning mahsuli sifatida musiqa fani vujudga keladi.

Bu ilm shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tananing sog'ligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasalga uchrasa, ruh ham so'liyadi, ojizlashadi, tana qiyinchilikka uchrasa, ruh ham azobga uchraydi. Shu sababli tananing davolanishi ruhni davolash orqali amalga oshiriladi, ovozlarning ta'siri ostida ruhiy quvvatlar o'z substansiyasiga moslashadi va tartib hamda muvozanatga keladi.

Alloma fikricha, yuqorida sanab o'tilgan arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa ilmlari tarbiyalovchi ilmlar guruhini tashkil qilib, so'nggi ilmlarni o'rganishning yo'l-yo'riqlarini belgilab beradi.

Ilmlarning barcha sohalari bilan shug'ullangan Forobiy tabiatshunoslik ilmi haqida ham o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tgan. Tabiat to'g'risidagi bu ilm pedagogik ilmlarga nisbatan boy va kengdir. Bu ilm eng keng ilm bo'lib, o'zidan oldin keluvchi ilmlarga muhtojdir. O'z fazilatlarini va o'rganish tartibi jihatidan, xususan, prognostika va meditsinani alohida ko'rsatib o'tish lozim. Oldingi ilmlarni egallamay turib, hech kim bu ilmlarga yondasha olmaydi va ularni to'liq o'rgana olmaydi.

Forobiy nazarida, narsalarning tabiiy holati va ularning turli qismlari orasidagi o'zaro munosabatiga muvofiq keladigan sun'iy predmetlarni yaratish maqsadida ularning holatini o'rganish to'g'risidagi ilm mexanika deb ataladi.

Alloma ilohiyot haqida to'xtalar ekan, ko'p hollarda Aristotelning "Metafizika"sini "moba' at-tabii", ya'ni tabiatdan yuqori, ustun turgan narsalarni o'rganavchi fan deb ko'rsatadi.

Buyuk qomusiy olim F. Bekondan ancha oldin, X asrdayoq bilish nazariy oqilonalik bosqichi bilan tugamasligini, balki bu jarayon borliqning chin mohiyati bo'lgan Haqni (Xudoni) bilish bilangina o'z nihoyasiga yetishini uqtirgan. Ayni shu ilm, uning talqiniga ko'ra, metafizika bo'lib, u "barcha ilmlarning yakuni va oxiridir. Undan so'ng biror narsani tekshirishning zarurati qolmaydi, bu har qanday tadqiqotning maqsadidirki, bunday tadqiqot kishini osoyishtalik holatiga keltiradi" [7].

Forobiy talqinida "Metafizika — jism bo'lmagan va jism tarkibiga kirmagan narsalarni hamda boshqa ilmlar o'rganadigan narsalarning eng so'nggi sabablarini o'rganish bilan shug'ullanadi" [8].

Buyuk alloma shahar haqidagi ilm — "ilmi madaniyya" (yoki shaharni boshqarish haqidagi, ya'ni siyosiy ilm), huquqshunoslik va kalom (musulmon aqidasi) haqida to'xtalar ekan, u axloq, tarbiya va davlatni boshqarish masalalari, ularning xususiyatlari haqida o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. Bu bo'limda Forobiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Abu Nasr Forobiy Aristoteldan farqli o'laroq, metafizikani mohiyat to'g'risidagi fan sifatida oxirgi o'rinlardan biriga — til haqidagi fan, mantiq, matematika va tabiiy fanlardan keyin qo'yadi. Bunda u mazkur konkret fanlarni o'rganish falsafani tushunib yetish uchun asos vazifasini o'taydi, degan fikrga tayanadi.

Umuman olganda, Forobiy klassifikatsiyasining eng muhim ahamiyati shundaki, **birinchidan**, u materiyaning, predmet va hodisalarning hamda substansiyaning xususiyatlariga asoslanadi, ya'ni har bir fan tarmog'i substansiyaning ma'lum obyektiv xususiyatini o'rganadi va aks ettiradi.

Ikkinchidan, fanlar substansiyaning soddadan murakkabga qarab rivojlanishi asosida klassifikatsiya qilinadi, ya'ni fanlar tartibi soddadan murakkabga, pastdan yuqoriga qarab borish prinsipiga asoslanadi. Turli ilmlar inson xohishiga bog'liq holda birdaniga paydo bo'lib qolmagan, ularni hech kim o'zicha o'ylab topmagan ham. Fanlar predmet va hodisalarni o'rganish, bilishga bo'lgan ehtiyojning kelib chiqishi va bu ehtiyojning kuchayishi natijasida asta-sekin ma'lum qonuniy tartibda vujudga kelgandir.

Uchinchidan, fan tarmoqlari o'zaro bog'liq holda olinadi va ular bir-birlarini inkor etmaydi, balki to'ldiradi, ya'ni turli fanlar bir butun substansiyaning barcha tomonlari haqida yaxlit bilim beradi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Forobiyning ilmlar klassifikatsiyasi haqidagi ta'limoti O'rta asr Sharq ilmiy-falsafiy tafakkurining yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Mutafakkir fanlarni tizimlashtirishda ularning kelib chiqishi, predmeti va o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor qaratib, ilmiy bilimlarni soddadan murakkabga qarab izchil rivojlanish tamoyiliga asoslagan. Bu yondashuv ilmiy tafakkur taraqqiyotida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Қаранг: Бахадиров Р.М. Из истории классификации наук на средневековом мусульманском Востоке. Т.: “Академия” 2000, 39-41 б.
2. Қаранг: Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. -Т.:Ўзбекистон 1971, 175-176 б.
3. Қаранг: Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. -Т.:Ўзбекистон 1971, 179-б.
4. Қаранг: Аль-Фараби. Избранные трактаты. А.: “Гылым” 1994, 48-57 б.
5. Абу Наср Форобий. Рисолалар. Т.: Фан, 1975. 50-б.
6. Қаранг: Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. 174-175 бетлар.
7. Қаранг: Ш.Қаҳҳорова. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. Т.: “Тафаккур” нашриёти. 2009. 98-б.
8. Абу Наср Форобий. Рисолалар. Т.: Фан, 1975. 39-б.
- 9.Тулкин, Бойгазиев. "Форобий фалсафасида билимларнинг турларга ажратилиши." *Философия и право* 25.2 (2023): 150-154.
- 10.Boygaziyev, T., and A. Ochilov. "ABU NASR FOROBIYNING BOSHLANG'ICH BILIMLAR HAQIDAGI QARASHLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.5 (2023): 39-43.
11. Pardayev, Ismatullayevich, and Tulqin Boygaziyev Inatullayevich. "Views of Abu Nasr Farabi on the Interaction Between the Human Spirit and the Body." *JournalNX* 7.04: 374-376.
12. Boygaziyev, Tulqin. "Форобийнинг ақл, билиш ва илм ҳақидаги таълимоти (таҳлил ва талқин)." *Молодые ученые* 2.17 (2024): 23-27.
13. Nomozov, Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURLARIDAN FOYDALANISH OHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.
14. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.
15. Nomozov, Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje* 22 (2022): 229-231.
16. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G 'OYALAR, 1(2), 52-58.
17. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O 'RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.

18. Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li. "YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O'RNI." *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari* 5.2 (2025): 27-31.
19. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR, 1(2), 52-58.
20. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
21. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
22. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O 'RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.
23. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
24. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.
25. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Farg'ona davlat universiteti*,(3) (2023): 67-67.
26. Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA-MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.21 (2024): 529-535.
27. Nurillayevich, O. B. "ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*,(SI-1) (2022).
28. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." *Gospodarka i Innowacje* 44 (2024): 235-242.
29. Omonov, B. N. "O 'zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari." *Философия и право* 28.2 (2024): 41-43.
30. Omonov, Bahodir. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O 'RNI." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 125-128.
31. Omonov, B. N. (2024). MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA-MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 529-535.

32. Nurillayevich, O. B. (2022). ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*,(SI-1).

33. Омонов, Б. Н. (2024). Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения. *Gospodarka i Innowacje*, 44, 235-242.

34. Omonov, B. N. (2024). О ‘zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari. *Философия и право*, 28(2), 41-43.

35. Omonov, B. (2025). EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O ‘RNI. *Modern Science and Research*, 4(3), 125-128.

36. Nurillayevich, Omonov Bahodir. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDLARNING KUCHAYISHI VA UNGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI." *Conferences*. Vol. 1. No. 3. 2025.